



## **O‘QUVCHILRDA KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH**

***Surmaxon Ismoilova,  
“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM  
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasи dotsenti***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatini shakllantirishning ahamiyati va bu jarayonda foydalaniladigan metodlar haqida so‘z boradi. Kreativlik nafaqat san‘at sohalarida, balki ilm-fan va texnologiya sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun erkin fikrlash, san‘at faoliyatlari, interaktiv o‘qitish metodlari va muammolarni hal qilish mashqlari kabi usullar qo’llanilishi kerak. Ushbu maqola o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun samarali ta’lim yondashuvlarini taqdim etadi.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, o‘quvchilar, shaxsiy rivojlanish, ta’lim metodlari, innovatsiya, erkin fikrlash, san‘at va ijod, interaktiv o‘quv metodlari, muammolarni hal qilish.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность формирования креативных способностей у учеников и методы, используемые в этом процессе. Креативность имеет большое значение не только в области искусства, но и в науке и технологии. Для развития креативного мышления у учеников должны применяться такие методы, как свободное мышление, деятельность в области искусства, интерактивные методы обучения и решение проблемных задач. Статья представляет эффективные подходы в обучении для развития креативности у учащихся.

**Ключевые слова:** креативность, ученики, личностное развитие, методы обучения, инновации, свободное мышление, искусство и творчество, интерактивные методы обучения, решение проблем

**Abstract:** This article discusses the importance of fostering creativity in students and the methods used in this process. Creativity is crucial not only in the arts but also in science and technology. To enhance creative thinking in students, methods such as free thinking, artistic activities, interactive teaching methods, and problem-solving exercises should be applied. This article presents effective educational approaches to developing creativity in students.

**Keywords:** creativity, students, personal development, teaching methods, innovation, free thinking, art and creativity, interactive teaching methods, problem-solving

**Kirish** Bugungi kunda asosiy e’tibor o‘quvchi yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga, ularning mustaqil fikrlaydigan, yuksak tafakkur egasi va ma’naviyatli insonlar bo‘lib shakllanishlariga qaratilgandir.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish, bu tizimga yangiliklar kiritish, o‘quv jarayonlarining tuzilishini yangilash, avvaldan mavjud bo‘lgan holatdan o‘zgargan, farq qiluvchi ta’limni takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, yaxshi natija beradigan mexanizmlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish kerak. Kreativlik so‘ziga berilgan ta’tifga e’tibor bersak, kreativlik – bu insonning yangi va original fikrlar yaratish, mavjud narsalarga yangicha qarash qobiliyati. O‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish esa ularning umumiy intellektual rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

Kreativlik – bu insonning yangi fikrlarni yaratish, yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati bo‘lib, har bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur. Yangi fikrlar yaratish, noan'anaviy yechimlar taklif etish va mavjud imkoniyatlarni innovatsion tarzda qo‘llash – bularning barchasi kreativ fikrlashning bir qismi hisoblanadi. O‘quvchilarda esa kreativlikni rivojlantirish nafaqat ta’lim jarayonini samarali qilish, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ahamiyat baxsh etadi.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Bugungi kunda XXI asrni axborotlar oqi asri deyilmoqda. Hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan ta’lim-tarbiya sohasiga ham ko‘plab yangiliklar kirib kelmoqda. Shu jumladan pedagogika, yani ta’lim-tarbiya sohasida ham keyingi 20-yil ichida “kreativlik” tushunchasi keng kirib keldi va bu tushuncha so‘nggi yillarda talim-tarbiya jarayonlarida ma’lum darajada qo‘llanilmoqda. Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri, ongi orqali, takrorlanmas, bir-biriga o‘xshamas yo‘l tutishi bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi.

Xo‘sish kreativlik tushunchasi qanday tushuncha? degan savolga javob beradigan bo‘lsak, kreativlik lotincha, inglizcha “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor, ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod degan ma’nolarni anglatadi. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

Kreativlikni sodda til bilan tushintiradigan bo‘lsak, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma’nolarni anglatadi. Ya’ni bu bir xillikdan qochish, nimagadir yangicha yondashish ko‘nikmasidir.

Kreativlik bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxsning shaxsiy sifati ya’ni fazilatidir.

Kreativlik – insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq.

Kreativlik tushunchasi bu cheklash mumkin bo‘lgan tushuncha emas. Uni rivojlantirish har birimizning qo‘limizda. Kreativlik bu XXI asr talabi deyishimiz mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

Kreativlik – bu so‘zni sodda tilda tushintiradigan bo‘lsak, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma’nolarni anglatadi. Ya’ni bu bir xillikdan qochish, nimagadir yangicha yondashish ko‘nikmasi sanaladi.

Tolipov U., Sharipov SH. “O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar” nomli o‘quv qo‘llanmasida kreativlik ya’ni ijodgorlikni quyidagicha ta’riflarlangan:

“Ijodkorlik ko‘pchilikka noma’lum va murakkab xususiyatlarni o‘rganishga imkon beruvchi tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitda ko‘rsatishi bilan bog‘liq va o‘ziga xos fikrlash qobiliyati modelidir” .

“Ijodkorlik – bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur”, “Ijodkorlik – bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o‘zagartirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zlikni anglashdir” deya ta’riflangan. [5,19-b.].

Xolmatov M. “O‘qitishda kreativlikni rivojlantirish” nomli qo‘llanmasida Kreativlikni rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarning erkin fikrlashini rag‘batlantirish muhimligini ta’kidlaydi. [4,45-b.].

Tursunov S “Ta’lim metodlari va kreativ fikrlash” qo‘llanmasida ta’lim metodlarini innovatsion tarzda qo’llash o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi degan fikrlarni berib o‘tgan. [3,33-b.].

O‘qituvchidagi kreativlik (ijodkorlik)ni mazmuni pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatini bildiradi. Kreativlik qobiliyati o‘quvchilarda maqsadiga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo’llash va berilgan topshiriqlarga kreativ yondashib, darsliklardan o‘rin olgan topshiriqlarni nostandard usulda hal etish ko‘nikmasini shakllantirish.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yoshlarda milliy qadriyatlarni shakllantirish bugungi kunda jamiyatni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va an'analar nafaqat ijtimoiy hayotda, balki ma’naviy-ma'rifiy sohalarda ham muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli o‘laroq yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Odatta pedagog-o‘qituvchilarning kraetivlik qibiliyatlariga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilishi, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’milanadi. Pedagogdagagi kreativlik qobiliyati o‘z-o‘zidan bo‘lib qolmaydi, balki undagi ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takollashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagogda ham kreativlik qobiliyathariga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillardayoq poydevor qo‘yilishi kerak va o‘z kasbiy faoliyatni shakllantirish ejarayonida rivojlantirib boriadi. Bunda, albatta, pedagogning

ijodiy faoliyatga yo‘nalishtirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi lizim.

Xo‘sh bugungi kunning o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak?, Qanday kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak?

Bugungi kun o ‘qituvchisi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi shart. Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakli-metod va vositalaridan unumli foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

### **Kreativlikni shakllantirishning quyidagi usullari mavjud:**

**1.Erkin fikrlash va muhokama qilish:** O‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini berish va guruhlarda fikr almashishni tashkil etish kreativlikni rivojlantiradi.

**2.San’at va ijodiy faoliyatlar:** San’at va musiqa mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

**3.Interaktiv o‘quv metodlari:** O‘quvchilarning o‘zlarini erkin ifoda eta olishlari va amaliy mashg‘ulotlarda qatnashishlari shu bilan birga interaktiv o‘qitish metodlari, masalan, loyiha asosida o‘qish, kreativ g‘oyalarni rivojlantirishda samarali bo‘ladi.

**6.Muammolarni hal qilish mashqlari:** O‘quvchilarga turli xil muammolarni hal qilishga qaratilgan vazifalar berish, masalan, real hayotdagi masalalarni muhokama qilish yoki ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish o ‘quvchilarda kreativlik qobiliyatini oshiradi.

**5.Tabiat va atrof-muhit bilan ishlash:** O‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqari vaqitda tabiat qo‘yniga olib chiqish, tabiatdagi o‘zgaruvchan ob-havoni kuzatishga e’tiborli bo‘lishga o‘rgatish orqali kreativlikni oshirish. mumkin.

Kreativlik o‘quvchilarga muammolarni hal qilish qobiliyati: mustaqillikni rivojlantirish, o‘ziga bo‘lgan ishonch, ko‘nikmalarni yaxshilash, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

### **Xulosa**

Ushbu maqolada o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishning ahamiyati, metodlari va samarali usullari haqida fikr yututilgan. Shu bilan birga, kreativ fikrlashning ta’limdagi o‘rni, uning o‘quvchilarning umumiyligi rivojlanishidagi o‘rni, ta’lim metodlarini qanday qilib ijodiy va samarali tarzda o‘zgartirish mumkinligi haqida muhokama yuritganmiz.

O‘quvchilarda kreativlik qobiliyatini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish zarur. Ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish nafaqat bilimlarni chuqurlashtirish, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, kreativ fikrlar yaratish va yangi g‘oyalarni ilgari surish o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini o‘stirishga, kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarda bu qobiliyatni shakllantirish nafaqat ular uchun kelajakda muvaffaqiyatli kasb egasi bo‘lishlariga imkoniyatlar

yaratadi, ularning dunyoqarashlarini kengaytiradi, shu bilan birga o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarini oshiradi.

Kreativ fikrlash ta’limda o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish kerak bo‘lgan muhim sifat hisoblanadi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki ular o‘zlarini ifoda etish, mustaqil fikr yuritish, yangi fikrlarni ishlab chiqish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishini, shu bilan birga, o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, yangiliklarga ochiq bo‘lish va jamoada ishlash kabi ijtimoiy ko‘nikmalarini ham oshiradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Fikrni erkin ifoda etish, yangi yechimlar topish, noan'anaviy yondashuvlar bilan turli muammolarni hal qilish – bularning barchasi kreativlikning namoyon bo‘lishi. O‘quvchilarda bu qobiliyatni shakllantirish nafaqat ular uchun kelajakda muvaffaqiyatli kasb va ish imkoniyatlarini yaratadi, balki ular dunyoqarashini kengaytiradi va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Kreativlik ta’limda bevosita rivojlantirilishi kerak bo‘lgan sifatdir. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki ular o‘zlarini ifoda etish, mustaqil fikr yuritish, yangi fikrlarni ishlab chiqish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, kreativ fikrlash o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, yangiliklarga ochiq bo‘lish va jamoada ishlash kabi ijtimoiy ko‘nikmalarini ham oshiradi.

Kreativlik – bu yangi va qiziqarli g‘oyalarni o‘ylab topish, yangi narsalarni yaratish va ularni amalga oshirish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kreativlik juda muhim, chunki ular o‘zlarining fikrlash usullarini rivojlantira boshlashadi. Bu yoshda bolalar nafaqat bilimlarni o‘rganadilar, balki o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishlari kerak. Masalan, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g‘oyalarni yaratish va turli xil muammolarni hal qilishda yordam berish zarur. Bu ularni nafaqat o‘qishda, balki hayotda ham muvaffaqiyatli qilishga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- 1.Nazarova L. Inovatsion ta’lim metodlari. Samarqand: Ilm va ta’lim.2020.
- 2.Tolipov.U., Sharipov SH. “O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar” “Fan” nashri, 2012.
- 3.Tursunov S. Ta’lim metodlari va kreativ fikrlash. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2019.
- 4.Xolmatov, M. (2020). O‘qitishda kreativlikni rivojlantirish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.2020
- 5.Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947. Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 1270-1275-b.